

ZAMONAVIY JAMOAT MARKAZLARI

Fayziyev Xurshid Dilshadovich

Rahbar: Qodirova Surayyo Adilovna

Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15753095>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy jamoat markazlarining shahar muhitidagi o'rni, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi, aqlii infratuzilma, yashil arxitektura va innovatsion texnologiyalarning jamoat makonlariga ta'siri yoritiladi. Dunyo tajribasidan misollar keltirilib, zamonaviy shaharsozlikda jamoat markazlarini rivojlanishning istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Jamoat markazlari, zamonaviy shaharsozlik, barqaror rivojlanish, innovatsion yechimlar, ekologik muhit, aqlii infratuzilma, transport va logistika, yashil arxitektura, urbanizatsiya jarayoni, multifunksional makonlar.

Абстрактный. В статье анализируется роль современных общественных центров в городском пространстве, их влияние на обеспечение социальной, экономической и экологической устойчивости. Рассматривается влияние ускоренной урбанизации, умной инфраструктуры, зелёной архитектуры и инновационных технологий на общественные пространства. Приводятся примеры из мирового опыта и обсуждаются перспективы развития общественных центров в современном градостроительстве.

Ключевые слова: Общественные центры, современное градостроительство, устойчивое развитие, инновационные решения, экологическая среда, умная инфраструктура, транспорт и логистика, зелёная архитектура, процесс урбанизации, многофункциональные пространства.

Abstract. The article analyzes the role of modern public centers in urban environments and their impact on social, economic, and ecological sustainability. It examines the effects of rapid urbanization, smart infrastructure, green architecture, and innovative technologies on public spaces. Examples from global practices are provided, and the prospects for developing public centers in contemporary urban planning are discussed.

Key words: Public centers, modern urban planning, sustainable development, innovative solutions, ecological environment, smart infrastructure, transport and logistics, green architecture, urbanization process, multifunctional spaces.

Kirish

Jamoat markazlari shahar hayotining ajralmas qismi bo'lib, ularning zamonaviy yechimlari shahar muhitining funksionalligi va estetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda jamoat markazlari faqatgina odamlar to'planadigan joy emas, balki shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi, texnologik innovatsiyalar va ekologik muammolar shaharlarning yangi rivojlanish yo'nalişlarini belgilab bermoqda. Shu sababli, zamonaviy shaharsozlikda jamoat markazlari nafaqat aholi ehtiyojlarini qondiradigan, balki ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan innovatsion yechimlarni o'z ichiga olishi lozim.

Asosiy qism

Jamoat markazlari shaharsozlikning ajralmas qismi bo'lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim funksiyalarni bajaradi. Kichik shaharlarda bu markazlar aholi turmush darajasini oshirish, shahar muhitini jozibador qilish va jamoaviy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Jamoat markazlari aholining o'zaro muloqot qilishi, madaniy tadbirlarda ishtirok etishi va shahar hayotida faol qatnashishini ta'minlaydi. Bunday maskanlar turli yoshdagi va



kasbdagi insonlarni bir joyga to'plash orqali ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ularning mavjudligi shahar muhitining jonlanishiga, jamoaviy tadbirlar va festivallarning o'tkazilishiga imkon beradi.

Jamoat markazlarining iqtisodiy jihatdan ham ahamiyati katta. Ular tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga zamin yaratadi. Kafe

va restoranlar, savdo do'konlari, san'at galereyalari, ustaxonalari shaharning iqtisodiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, turizm rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kichik shaharlarda jamoat markazlari sayyoohlarni jalb qilish va shahar infratuzilmasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ular savdo va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Jamoat markazlari yaqinida joylashgan mehmonxonalar, bozorlar va boshqa tijorat maskanlari orqali shaharga qo'shimcha daromad manbai yaratiladi.

Shuningdek, jamoat markazlari shaharning ekologik barqarorligiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil hududlar, ochiq maydonlar, piyodalar va velosiped yo'laklari shahar muhitini sog'lom va qulay qiladi. Ko'kalamzorlashtirilgan jamoat maskanlari nafaqat shahar estetik jozibasini oshiradi, balki havo sifatini yaxshilaydi va shaharliklarning dam olishi uchun tabiiy muhit yaratadi. Bundan tashqari, zamонави shaharsozlikda ekologik jihatdan barqaror texnologiyalar, masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yomg'ir suvidan foydalanish tizimlari va yashil arxitektura keng qo'llanilmoqda. Xususan, Skandinaviya mamlakatlarida ekologik barqarorlik tamoyillari asosida jamoat markazlarini loyihalash keng ommalashgan. U yerda energiya tejamkor binolar, tabiiy materiallardan qurilgan inshootlar va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan infratuzilma keng joriy etilgan.

Bugungi kunda jamoat markazlarini tashkil etishda aqli shahar texnologiyalaridan ham foydalanilmoqda. Masalan, interaktiv axborot panellari, aqli yoritish tizimlari va video kuzatuv uskunalari fuqarolarga qulay sharoit yaratib, shahar xavfsizligini ta'minlaydi. Aqli shahar texnologiyalarining joriy etilishi transport va ekologik muhitni ham yaxshilaydi. Masalan, aqli yo'l chiroqlari va kameralar yordamida transport oqimi nazorat qilinib, tirbandliklar kamaytiriladi. Aqli to'lov tizimlari esa fuqarolar uchun qulaylik yaratib, jamoat transportidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Dunyo tajribasidan misollar keltiradigan bo'lsak, Parijsda "15 daqiqalik shahar" kontseptsiyasi orqali aholiga barcha zarur xizmatlardan qisqa vaqt ichida foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu model bo'yicha shahar infratuzilmasi shunday tashkil qilinadi, fuqarolar o'zlariga kerakli xizmatlardan piyoda yoki velosipedda 15 daqiqalik masofada foydalana

oladilar. Tokioda esa jamoat transporti va ko‘p funksiyali savdo markazlari uyg‘unlashtirilgan holda rejalashtirilgan. Bunda har bir jamoat markazi transport tugunlari bilan bog‘langan bo‘lib, shaharning turli hududlarida odamlarning harakatlanishini osonlashtiradi.

Nyu-Yorkda esa eski temir yo‘l infratuzilmasi yashil hududga aylantirilib, fuqarolar uchun qulay dam olish maskani yaratildi. Singapur shahrida esa aqli shahar texnologiyalari va yashil infratuzilma yechimlari birlashtirilib, ekologik barqarorlik ta’minlangan. Kopengagenda esa shahar markazlarining avtomobilsiz hududlar bilan bog‘langanligi ekologik toza transport tizimini rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu model shahar muhitini piyodalar va velosipedchilar uchun qulay qilishga qaratilgan bo‘lib, jamoat transportining samaradorligini oshiradi.

Kichik shaharlarda jamoat markazlarini to‘g‘ri tashkil etish orqali shahar hayotini jlonlantirish, iqtisodiy faollikni oshirish va ekologik muhitni yaxshilash mumkin. Ular nafaqat savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida, balki madaniy va ilmiy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirish, shahar aholisi uchun qulay yashash muhitini yaratishda ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, jamoat markazlarini loyihalashda zamonaviy shaharsozlik tamoyillari, ekologik yondashuv va aqlii texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan yechimlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Jamoat markazlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, mahalliy aholining faol ishtiroki ham muhimdir. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda jamoat markazlari mahalliy fuqarolar bilan maslahatlashuv asosida tashkil etiladi, bu esa ularning ehtiyojlariiga mos loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, jamoat markazlari loyihalarini rejalashtirishda tarixiy merosni saqlash va hududning an‘anaviy me’moriy qiyofasini asrab-avaylash ham muhim sanaladi. Masalan, Barselonadagi "superblok" kontseptsiyasi orqali shahar markazlarida harakat cheklangan hududlar yaratilib, jamoat markazlari piyodalar uchun yanada qulaylashtirilgan.

Zamonaviy jamoat markazlari loyihalarida moslashuvchanlik ham asosiy mezonlardan biridir. Ularda vaqtinchalik inshootlar, ko‘chma tadbirlar maydonchalari va ko‘p funksiyali ochiq hududlar yaratilib, aholi turli sharoitlarda ushu makonlardan foydalanishi mumkin. Shu sababli, kelajak shaharsozligida jamoat markazlarining multifunktional, moslashuvchan va barqaror rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilishi zarur.



Shu kabi innovatsion yondashuvlar orqali shahar jamoat markazlari nafaqat shaharning iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi, balki aholining hayot sifatini ham oshiradi. Jamoat markazlarining samarali ishlashi shaharlarning yashash uchun qulay, ekologik barqaror va iqtisodiy rivojlangan bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi. Kelajak shaharsozligi esa aqlii texnologiyalar, ekologik dizayn va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida jamoat markazlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Xulosa

Shaharsozlikda jamoat markazlarining samarali ishlashi shaharlarning yashash uchun qulay, ekologik barqaror va iqtisodiy rivojlangan bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi. Innovatsion yondashuvlar esa bu markazlarni yanada jozibador va samarali qilish imkonini beradi. Kelajakda texnologik va ekologik yechimlarning yanada rivojlanishi shahar jamoat markazlarini yangi

bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

Ayniqsa, aqlli texnologiyalar, ekologik dizayn va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qurilgan jamoat markazlari kelajak shaharsozligining muhim elementi bo'lib qoladi. Bunday markazlar nafaqat shaharning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, balki aholining hayot sifatini ham oshiradi. Shu bois, shaharsozlik jarayonida jamoat markazlariga alohida e'tibor berish, ularni funksional va estetik jihatdan takomillashtirish zaruriyatga aylanmoqda.

Shuningdek, zamonaviy urbanistik yondashuvlar asosida jamoat markazlarining ijtimoiy hamkorlik maydonlari sifatida shakllantirilishi, ochiq va yopiq jamoat hududlari o'rtasidagi uyg'unlik, ekologik barqarorlikni saqlash hamda innovatsion yechimlar orqali shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, kelajak shaharsozligida jamoat markazlarining multifunksional, moslashuvchan va barqaror rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bu nafaqat shahar estetikasi va qulayligini oshiradi, balki urbanizatsiya jarayonini samarali boshqarishga ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Jacobs, J. (1961). *The Death and Life of Great American Cities*. Random House.
2. To'rayev, A. (2019). *Shaharsozlik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy nashriyoti.
3. Gehl, J. (2011). *Cities for People*. Island Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi. (2018). *O'zbekiston shaharlarining bosh rejalari bo'yicha metodik tavsiyalar*. Toshkent.
5. Sennett, R. (2018). *Building and Dwelling: Ethics for the City*. Farrar, Straus and Giroux.
6. Ergashxo'jayev, S. (2021). *O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. UN-Habitat. (2020). *World Cities Report 2020: The Value of Sustainable Urbanization*. United Nations.
8. Abdurahmonov, Q. (2017). *Zamonaviy shahar infratuzilmasini rivojlantirish tamoyillari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.